

## KRIMINOGEN VAZIYAT OG'IR MAHALLALARDA JINOYATCHILIKNI JILOVLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

**Alimov Muhammadjon Islomiddin o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,  
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Toshkent shahri misolida kriminogen vaziyat og'ir mahallalarda sodir etilayotgan jinoyatlarni ilmiy asoslangan holda tahlil qilish orqali mazkur jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va sodir etish omillarini o'rganib, ularni bartaraf etish bo'yicha asoslantirilgan taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** jinoyat, material, tergov, surishtiruv, omillar, tahlil va taklif.

**Abstract.** In this article, based on the example of the city of Tashkent, reasonable proposals and recommendations were formulated to eliminate these crimes by studying the causes and factors of these crimes through a scientifically based analysis of crimes committed in areas with a severe criminal situation.

**Keywords:** crime, material, investigation, inquiry, factors, analysis and assumption.

O'zbekiston bugun har bir sohada rivojlanib, o'zining taraqqiyot yo'lida tobora yuksalib, yuqori natijalarga erishib kelmoqda. So'nggi yilda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar mamlakatimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligiga xizmat qilib, jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof etilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev prezidentlik lavozimiga kelgan ilk kunlardan oq mamlakatimizda xavfsizlikni ta'minlash, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Bu borada mahallaning xalq manfaatlariga xizmat qiladigan xalqchil tuzilmaga aylantirish ustuvor maqsad etib belgilandi.

O'zini o'zi boshqarishning noyob tizimi bo'lgan bu idoraning nufuzini oshirish, uni chinakam xalq vijdoniga aylantirish, huquq va vakolatlarini kengaytirish, moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash borasida keyingi yillarda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu ishlar, avvalo, bandlikni ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, xotin-qizlar, yoshlar, nuroniy otaxon va onaxonlarimizga manzilli yordam ko'rsatish, fuqarolarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, kambag'allikni qisqartirish hamda ma'naviy-

ma'rifiy tadbirlar bilan uyg'un holda olib borilayotgani diqqatga sazovordir.

E'tibor qaratadigan bo'lsak, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 127-moddasida mahalla institutiga alohida tavsiflangan, ya'ni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqliligi belgilab qo'yildi.

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining birinchi maqsadida, mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish muhim vazifa sifatida belgilab berildi. Shundan kelib chiqib, hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalar vakolatlarini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, fuqarolarning o'z mahallasi hayotidagi ishtirokini hamda davlat organlari va mahallalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani ta'minlash, mahallalarda aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni raqamlashtirish kabi ustuvor yo'nalishlarda keng amaliy ishlar olib borilmoqda.

Mahallalarda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosidagi ishlar O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” 2013-yil 22-apreldagi 350-son[1] hamda “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” 2014-yil 14-maydagi 371-son qonunlari[2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son farmoni[3] va boshqa qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, 2023-yil 30-martda tegishli davlat organlarining qo‘shma qarori qabul qilinib, mazkur qaror asosida alohida yo‘riqnoma ishlab chiqildi. Ushbu yo‘riqnomada “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida respublika mahallalarida huquqbuzarlik sodir etishga moyil yoxud huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar, ya’ni ijtimoiy profilaktika obyekti bo‘lgan shaxslar bilan kunlik, yakka tartibda ishlash bo‘yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish tartibi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 21-dekabrda PF-209-son farmoni [4], shuningdek, “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillash-tirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 21-dekabrda 402-son [5] hamda Vazirlar Mahkamasining “Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 13-iyundagi 334-son qarorlarida [6] mahalla-larni qo‘llab-quvvatlashni yanada takomillash-tirish, mahallabay ishlashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning hamkorligini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitut-siyasining 127-moddasiga [7] muvofiq fuqaro-larning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishda ko‘maklashish maqsadi nazarda tutiladi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda mahallaning xalq bilan davlat o‘rtasidagi “ko‘prik” vazifasini amalga oshiruvchi mustaqil va xalqchil tuzilmaga aylantirish borasida “mahalla yettiligi”ning o‘rni va roli muhim hisoblanadi. Shu maqsadda ham oxirgi yillarda “mahalla yettiligi” faoliyatini har tomonlama tashkiliy, moddiy qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan ham “mahalla yettiligi” faoliyatini muvofiqlashtirish, funksiya va vazifalarini kengaytirish muhim maqsadlardan birisanaladi.

Yuqorida keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlagan holda hududlardagi kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida mahallalarda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, amaliy tadbirlar olib borilishiga qaramasdan, bir qator jinoyatlarning sodir etilishi jilovlanmasdan qolmoqda.

Masalan, mamlakatimizda o‘g‘irlangan mobil qurilmalardan foydalanishni va ularning qayta sotilishini cheklash maqsadida “UZIMEI” tizimi yo‘lga qo‘yilgan, lekin mazkur tizimda fuqarolarning mustaqil ravishda tizim orqali yo‘qolgan uyali aloqa telefonlarini bloklash imkoniyatlari mavjud emas. Mazkur masalaning amaliy yechimi sifatida fuqarolarga mustaqil ravishda “UZIMEI” tizimi orqali telefonni bloklashi uchun ruxsat (dostup) berilishi maqsadga muvofiq.

Mazkur masalada Avstraliyada o‘g‘irlangan telefonlardagi ma’lumotlardan foydalanishni cheklash maqsadida “IMEI Blocking” (o‘g‘irlangan telefonlarni tarmoqdan bloklash tizimi)dan [8], Hindistonda “Central Equipment Identity Register” (CEIR) (o‘g‘irlangan telefonlarni bloklash uchun markazlashgan tizim)[9]dan fuqarolar o‘zlari mustaqil ravishda uyali aloqa vositalarini bloklashda foydalanishadi.

Hozirda mamlakatimizda shahar sharoitida ko‘p qavatli uylar mavjud bo‘lgan mahallalarda velosiped (skuter, moped) o‘g‘irliklarining oldini olish uchun velosiped (moped, skuter)larni onlayn tarzda ro‘yxatga oluvchi “Velosmart” dasturini yaratish, ushbu dastur orqali velosipedlarni onlayn ro‘yxatga olish, ularga xavfsizlik belgilarini berish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Mazkur jinoyat yuzasidan xorijiy tajriba o‘rganilganida Niderlandiyada “Stop Fietsdiefstal” dasturi [10], Germaniyada “Fahrradpass” (velosipedlarni raqamli ro‘yxatga olish va kuzatish) tizimi[11], Buyuk Britaniyada “Bike

Register” (milliy velosiped ma’lumotlar bazasi) [12], Shveysariyada “Velofinder” (velosipedlarni ro’yxatga olish va kuzatish uchun milliy onlayn platforma)[13], Kanadada “Project 529” (xalqaro miqyosda velosipedlarni ro’yxatga olish va kuzatish tizimi)[14], Singapurda “Bicycles Security Label” (har bir velosipedga noyob xavfsizlik belgisini o’rnatish tizimi)[15], AQSHda “Bike Index” (xalqaro miqyosda velosipedlarni ro’yxatga olish tizimi)[16], San-Fransisko shahrida “S.A.F.E Bikes” dasturi (velosiped egalarini ro’yxatga olish va o’qitish) orqali ro’yxatga olish tizimi yo’lga qo’yilgan.

Yaponiyada velosipedlarni majburiy ro’yxatga olish tizimiva velosiped egalariga maxsus litsenziya berish amaliyoti mavjud.

Yuqorida o’rganilgan xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimizda ham fuqarolarga va velosiped savdosi bilan shug’ullanuvchi tadbirkorlarga ularni majburiy ro’yxatdan o’tkazish bo’yicha majburiyat yuklash, shuningdek, ko’p qavatli turar joy binolari yaqinida, jamoat transporti bekatlari yaqinida, ta’lim muassasalari atrofida, yirik savdo markaz-

lari oldida, dam olish va ko’ngilochar maskanlar hududida, davlat muassasalari atrofida velosiped (skuter, moped)lar uchun doimiy nazorat qilinadigan alohida xavfsiz saqlash joylarini tashkil qilish lozim.

Niderlandiyada Amsterdam markaziy vokzalida 7 mingta velosipedga mo’ljallangan ko’p qavatli turargoh mavjud, Daniyada avtomatlashtirilgan velosiped turargohi, Germaniyada temiryo’l stansiyalarida maxsus velosiped turargohlari (Bike & Ride), Yaponiyada avtomatlashtirilgan yerosti velosiped turargohlari, Fransiya Velib tizimi orqali velosiped ijarasi va turargohlar tarmog’i, Ispaniyada velosiped ijarasi va turargohlar tizimi, Kanadada qishda ham foydalanish mumkin bo’lgan velosiped yo’laklari va turargohlar tashkil etilgan.

Yuqorida keltirilgan xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayangan holda mamlakatimizda ham kriminogen vaziyat og’ir hududlarda o’g’irlik, talonchilik va boshqa mulkiy jinoyatlarni chuqur tahlil qilgan holda ular sodir etilganidan so’ng emas, balki sodir etilishidan oldin barvaqt profilaktikasini tashkil etish maqsadga muvofiq.

## Foydalanilgan manbalar

1. O’zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari to’g’risida” 2013-yil 22-apreldagi 350-son O’RQ-350-son qonuni // lex.uz.
2. O’zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida” 2014-yil 14-maydagi O’RQ-371-son qonuni // lex.uz.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog’lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo’llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida” 18.02.2020yildagi PF-5938-son farmoni // lex.uz.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo’g’in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to’g’risida» 2023-yil 21-dekabrda PF-209-son farmoni // lex.uz.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo’lga qo’yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 2023-yil 21-dekabrda PQ-402-son qarori // lex.uz.
6. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida» 2024-yil 13-iyundagi 334-son qarori // lex.uz.
7. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // lex.uz.
8. Lost or stolen mobile devices - AMTA | The Voice of the Australian Mobile Telecommunications Industry - murojaat sanasi 20.09.2024-yil.
9. <https://ceir.gov.in/Home/index.jsp> - murojaat sanasi 20.09.2024 yil.
10. Start campagne Stop fietsdiefstal (fietsnetwerk.nl) - murojaat sanasi 20.09.2024-yil.
11. Login-Fahrradpass, Fahrradregistrierung und Fahrradausweis online - murojaat sanasi 20.09.24y.
12. Bike Index - Bike registration that works - murojaat sanasi 20.09.2024-yil.
13. Velofinder - murojaat sanasi 20.09.2024-yil.
14. <https://project529.com/garage> - murojaat sanasi 20.09.2024 yil
15. Security labels to prevent bike thefts|Be your own BOSS @WordPress - murojaat sanasi 20.09.24.
16. Bike Index - Bike registration that works - murojaat sanasi 20.09.2024